

“YORQIN TURMUSH” VA “YORQIN HAYOT” JURNALLARIDA TARJIMA ASARLARNING YORITILISHI. (1936-1941-YILLAR MISOLIDA)

Doniyorova Gulrux Baxtiyorovna

Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti

o'qituvchisi Filologiya fanlari doktori,

professor H.Boltaboyev taqrizi asosida

Annotasiya

“Yorqin turmush” va “Yorqin hayot” jurnallarining 1936-41 yillarda chop etilgan sonlaridagi tarjima asarlarning ilmiy qimmati, tarjima asarlarning ahamiyati, gazetxonlarni turli millatlarning adabiy, siyosiy, iqtisodiy ahvoli haqida xabardor qilish borasida qilingan ishlar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Tarjimashunoslik, badiiy asarlar, she'r, hikoya, tarjimon,

O'zbek tili va adabiyoti tarixini tarjima asarlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Tarjima til va adabiyot tarixining ajralmas bo'lagi hisoblanadi. Adabiyotimiz tarixida Gippokrat, Aristotel, Ptolemey va Evklid asarlaridan tortib, “Homer” dostoni, “Ming bir kecha”, “Kalila va Dimna”, “Shohnoma” kabi ko'plab xalqlarning durdona asarlari tarjimalari shular jumlasidan. Jadidchilik davri matbuotida ham tarjima asarlar ko'p uchraydi. “Oyina” jurnalida Umar Xayyom, Bedil she'rlari, Gyotening “Faust” asaridan ham parchalar berib borilgan. “Turkiston viloyatining gazetasi”da A.S.Pushkin, M.Yu.Lermontov, I.A.Krilov, L.N.Tolstoy kabi rus adiblari ijodidan namunalar chop etilgan.

“Yorqin turmush” va “Yorqin hayot” jurnallarida chop etilgan tarjima asarlarning ilmiy qimmati shundaki, gazetxonlar rus, xitoy, hind, tatar, qozoq, qirg'iz kabi millatlarning adabiy, siyosiy, iqtisodiy ahvoli haqida ham ma'lumotlarga ega bo'lgan. Jami bo'lib jurnalning 1936-1941 yillardagi 53 ta sonida 58 ta tarjima asarlar nashr etilgan. Bulardan 23 tasi hikoya, 19 tasi she'rlar, 11 tasi roman va 5 tasi ertaklardir. Tarjimalarining 11 tasi H.G'ulom, 5 tasi G'.G'ulom, 5 tasi P.Tursun, 5 tasi A.Rahmat, 3 tasi Sh.Ziyo, 2 tasi H.Olimjon, 2 tasi O'rmonboy va qolganlari Mirtemir, Uyg'un, Shayxzoda, Mirzakalon, Odil Rahimiy va boshqalarga tegishli.

Badiiy asarlarni tarjima qilish uchun faqatgina til bilishning o'zi kifoya qilmaydi. Bunda tarjimondan ijodiy mahorat, badiiyat ilmidan ham xabardorlik talab etiladi. She'riy tarjimaning yanada murakkabligi shundaki, unda asarning g'oyaviy mazmuni bilan bir qatorda estetik kayfiyatini ham saqlab qolishi o'ta muhim masala. She'riy tarjimalar bilan aksariyat hollarda shoirlar shug'ullanadi. Chunki bunda qofiya, vazn, radif va ohangdorlik muammolari qolaversa, muallif uslubining tarjimasi ham

muhim rol o'ynaydi. "Yorqin turmush"ning 1936-1937-yillardagi bizgacha yetib kelgan 15 ta sonida jami 12 ta tarjima asar mavjud. Shundan 5 tasi she'riy tarjimalardir. 1937-yil, 1-son, 23-betida Mirtemir tarjimasi bilan A.S.Pushkinning "Romans", 1937-yil, 2-son, 3-sahifasida M.Shayxzoda tarjimasi bilan A.S.Pushkinning "Haykal" she'rlari shular jumlasidan.

"Yorqin hayot" jurnali ham 1938-1941 yillar oraligida chop etilgan va bizgacha saqlanib qolgan 38 ta sonida 15 ta she'riy tarjimalar bor. 1938-yil, 3-son, 21-betida G'.G'ulom tarjimasi bilan rus tilidan "O'yun laparlari", 24-betida chechen tilidan "Umid tutma" she'rlari chop etilgan. 1939-yil, 7-8 sonlari, 33-betida H. G'ulom tarjimasi bilan Lermontov ijodidan "Bolaga", "Kazak allasi", "Tush" kabi she'rlari, 1939-yil, 11-son, 7-betida Kosta Xetagurovning "Yangi yil qo'shig'i", "Alla", "Kuyla", "Kuz" kabi she'rlar shular jumlasidan.

"She'riy tarjimaning yanada mushkulligi va o'ziga xosligini ko'zda tutib, taniqli rus shoiri va tarjimoni V.A. Jukovskiy hatto "She'riyatda mutarjim – muallifning raqibi"degan edi". (Ergash Ochilov "Tarjimashunoslikning nazariy masalalari" T.: Innovasiya-Ziyo 2022-y,193-b) Bu kabi badiiy adabiyot namunalarini matbuot sahifalarida chop etilishidan maqsad o'quvchilarni turli millatlarning adabiyoti, hayoti, turmush tarzidan xabardor qilish, tafakkurini charxlash barobarida unga estetik zavq bag'ishlashdir.

"Yorqin turmush" jurnalida chop etilgan tarjima hikoyalarning ham o'z o'rnini bor. 1936-1937-yillardagi 15 ta sonida 6 ta tarjima hikoyalar chop etilgan. 1936-yil, 4-5-sonlari, 30-32-betida Odil Rahimiy tarjimasi bilan A.Chexovning "Uyqu istagi" hikoyasi, 1937-yil, 1-son, 18-23-betida Izzat Sulton tarjimasi bilan A.S.Pushkinning "Bekat nazoratchisi", 1937-yil, 9-son, 15-16-betlarida M.Gorkiyning "Jajji qiz", 23-24-betlarida P.Tursun tarjimasi bilan G.D.Mopassanning "Mayiblar onasi" hikoyalari chop etilgan. Fransuz yozuvchisi Gi de Mopassan bu hikoyasida "iblis ayol" qiyofasida ma'naviy qashshoq, hayotni mol dunyodan iborat deb biluvchi, razolat qa'riga uloqtirilgan notavon kishilar obrazini yaratgan. Hikoya qahramoni bo'lgan ayol aslida jisman mayib go'daklarning emas, jismi sog' bo'lsa ham, ruhan va aqlan mayib kishilarning ramziy onasi degan fikrni olg'a suradi.

"Yorqin hayot" jurnalining 1938-1941-yillardagi 38 ta sonida 19 ta hikoyalar chop etilgan. Bularning 5 tasi H. G'ulom, 3 tasi Parda Tursun, 2 tasi Majid Tursun, 2 tasi Sh.Rizo va boshqalar qalamiga mansub. 1938-yil, 4-son, 12-14-betlarida N. Baykova tarjimasi bilan German yozuvchisi Kurta Kleberaning "Kavasaki shahrining qizlari" ocherk-hikoyasi chop etilgan. Unda Kavasaki shahrida to'quvchilik fabrikasida ishlash uchun sotiladigan, og'ir sharoitda ishlaydian yosh qizlarning o'z haq-huquqlarini talab qilib namoyish qilishgani va bunga erishgani haqida hikoya

qilinadi. 1938-yil, 12-son, 10-12-betlarida Sh. Rizo tarjimasi bilan M.Gorkiyning “Odamning tug’ilishi”, 1939-yil, 6-son, 5-betida Parida Tursun tarjimasi bilan M.Gorkiyning “Baxt”, 7-8-sonlari, 31-32-betida H. G’ulom tarjimasi bilan A. Chexovning “Tanish erkak”, 1940-yil, 5-6-sonlari, 10-12-betida H.G’ulom tarjimasi bilan M.Gorkiyning “Italiya haqida ertaklar”, 11-12-sonlari, 17-18-betida P.Tursun tarjimasi bilan Chexovning “Grisha”, 1941-yil, 5-son, 10-11-betlarida H.G’ulom tarjimasi bilan A.Chexovning “Tergovchi” hikoyalari chop etilgan. A.Chexovning “Tanish erkak” hikoyasida “hurmatli grajdanka Nastasya Kanavkina” obrazi orqali mehnatsiz, yengil-yelpi hayot kechiruvchi ayollar tasvirini yaratadi. Jamiyatdagi bunday illatlar ayolning o’g’riyotgan tishi kabi sug’urib tashlanishi kerak degan fikrni olg’a suradi.

Jahon adabiyotining sara asarlarini o’zbek tiliga tarjima qilgan va o’quvchiga asliyatga zarar bermagan holda taqdim eta olgan P.Tursun, H.G’ulom, Sh.Rizo kabi mohir tarjimonlarimizning mehnati tahsinga sazovor. “...Muallif uslubini qayta yaratish, asar ritmi va intonasiyasini saqlash, personajlar nutqini asliyatidagi tabiiyligi bilan aks ettirish, milliy koloritni berish, frazeologizmlarning muqobil variantlarini topish, sheva xususiyatlarini ifodalash kabi ko’plab katta-kichik talab-shartlari mavjudki, ular tarjimonning chindan ham hal qiluvchi maqomga ega ekanligini ko’rsatadi.”(Ergash Ochilov “Tarjimashunoslikning nazariy masalalri” T.: Innovasiya-Ziyo 2022-y,196-b)

Jadidchilik davri va undan keyingi 1940-yillargacha bo’lgan o’zbek matbuotini kuzatib guvohi bo’ldikki, deyarli biror nashrda katta asarlar: doston, qissa, va romanlarning to’liq tarjimasi berilmagan. “Yorqin hayot” jurnalining bizgacha saqlanib qolgan 38 ta sonidan 12 tasida roman va qissalardan parchalar chop etilgan. 1938-yil, 3-son, 13-15-sahifalarida Ma’ruf Hakim tarjimasi bilan M.Gorkiyning “Ona” romanidan parcha berilgan. 1939-yil, 1-son, 14-16- sahifalarida Uyg’un tarjimasi bilan L.Tolstoyning “Anna Karenina” asaridan parcha chop etilgan.1940-yil, 3-son, 13-15-sahifalarida Atabekov tarjimasi ostida N.Gogolning “O’lik jonlar” poemasi dan parcha chop etilgan. 1940-yil, 11-12-sonlari, 28-29-betida fors tilidan N. Oxundiy, Xislat va Mo’minjon tarjimalari bilan Nizomiyning “Layli va Majnun” asaridan parcha chop etilgan. Katta hajmli asarlarni matbuotda to’liq chop etilmasligi ya’ni bo’lib-bo’lib davomiy tarzda berib borilmasligi faqatgina parchalar chop etilishi nazarimda maqsadga muvofiq emas. Aksincha, har sonida davomiylik bilan berib borilishi mushtariyga asar mohiyati, voqealar rivoji, yakuni va yozuvchining aytmoqchi bo’lgan fikri mavhum bo’lib qolmaydi, nashrning keyingi sonlarini qiziqib kutishiga sabab bo’ladi.

Tarjima asarlarning ilmiy qimmatini shundaki, u xalqlar o'rtasidagi o'zaro siyosiy, iqtisodiy, ilmiy va madaniy aloqalarning yanada kengayishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ergash Ochilov "Tarjimashunoslikning nazariy masalalari" T.: Innovasiya-Ziyo 2022-y
2. "Yorqin turmush" va "Yorqin hayot" jurnalarining 1936-1941 yillardagi sonlari
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Saodat>
4. <https://press.natlib.uz/ru/publications/saodat>

